

CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLASHGAN MUNOSABATLARDA FARZANDLIKKA OLISH MASALALARINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlar” kafedrasida o'qituvchisi

Tel.: +99899 841 00 96, e-mail: salimovadiera146@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida chet el elementi ishtirokidagi farzandlikka olishning huquqiy tartibga solinishini tahlil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va xalqaro xususiy huquq doirasida farzandlikka olish jarayoni, uning shartlari, sud tartibi, va kollizion normativlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, maqolada O'zbekistonning xalqaro shartnomalarga qo'shilishi va bu jarayonning bolalar manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyati yoritiladi. Farzandlikka olish jarayonining barcha bosqichlari hamda milliy va xalqaro huquqiy normativlarning uyg'unlashuvi tahlil qilinadi.

Asosiy tushunchalar: farzandlikka olish, chet el elementi, kollizion bog'lovchi, bolaning fuqaroligi, ota-onalik huquqi, qonuniy vakil, Minsk Konvensiyasi.

Chet el elementi ishtirokidagi farzandlikka olish munosabatlari xalqaro xususiy huquqning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham chet el fuqarolari tomonidan farzandlikka olish va o'z fuqarolarining chet elda farzandlikka olish jarayonlarini tartibga solish bo'yicha maxsus huquqiy me'yorlarni ishlab chiqqan. Chet el elementi bilan murakkablashgan farzandlikka olish masalalari Oila kodeksining 237-moddasida o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani chet el fuqarolari farzandlikka olishayotganda O'zbekiston qonunchiligi talablariga rioya etishlari hamda bolaning fuqaroligi kollizion bog'lovchisi asosida O'zbekiston hududida farzandlikka olishlari shart. Ushbu kollizion bog'lovchining ahamiyati shundaki, unda bolaning huquqlari, manfaatlari ko'zlangan. “Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida”gi 1993 yilgi Minsk Konvensiyasining 37-moddasida farzandlikka olish masalalari tartibga solingan bo'lib, farzandlikka olinuvchi qaysi mamalakat fuqarosi bo'lsa, o'sha mamalakat qonuni qo'llanilishi, shuningdek, farzandlikka olinayotgan bolaning qonuniy vakillari va vakolatli organlarning ruxsati, farzandlikka olayotgan shaxsning shaxsiy qonunida nazarda tutilgan hollarda esa farzandlikka olinayotgan bolaning ham roziligi olinishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishda bolaning qonuniy vakili va bola fuqarolikka ega bo'lgan davlat vakolatli

organining roziligi, shuningdek agar o'sha davlatning qonun hujjatlariga muvofiq talab qilinsa, farzandlikka olish haqida bolaning ham roziligi olinishi lozim¹.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan ham, chet el fuqarolari tomonidan ham O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olish masalalari bir xil tartibga solinishini belgilagan bo'lib, bunda chet el fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishda alohida shartlar yoki tartib belgilanmagan. Bu borada istisno tariqasida faqatgina Oila kodeksi 237-moddasi 3-qismida agar farzandlikka olish natijasida farzandlikka olingan bolaning O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlari buziladigan bo'lsa, farzandlikka oluvchining qaysi fuqarolikka mansubligidan qat'i nazar, farzandlikka olish mumkin emasligi, farzandlikka olingan taqdirda esa u sud tartibida bekor qilinishi lozimligining belgilanganligini ta'kidlash mumkin². Farzandlikka olishning protsessual jihatlari, undagi taraflarga qo'yiladigan muhim shartlar va tartibga doir masalalarni hal etishda xalqaro konvensiyalardan biri bo'lgan 1965-yilgi "Farzandlikka olishda yurisdiksiya, qo'llaniladigan huquq va farzandlikka olish to'g'risidagi sud qarorlarini tan olish to'g'risida"gi Gaaga Konvensiyasi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, 1993-yil 29-maydagi "Bolalar muhofazasi va xorijiy farzandlikka olish bo'yicha hamkorlik to'g'risida"gi Gaaga Konvensiyasi ham mavjud bo'lib, quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

a) xorijiy farzandlikka olish bolaning manfaatlarini inobatga olgan holda, xalqaro huquqda e'tirof etilgan uning asosiy huquqlariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi uchun kafolatlar yaratish;

b) bunday kafolatlarning amal qilishini ta'minlash va buning vositasida bolalarning o'g'irlanishi, sotilishi va ular bilan savdo qilishning oldini olish uchun Kelishayotgan davlatlar o'rtasida hamkorlik tizimini yaratish;

c) Konvensiyaga muvofiq amalga oshirilgan farzandlikka olishning Kelishayotgan davlatlarda tan olinishini ta'minlash³.

O'zbekistonda farzandlikka olish haqidagi ishlar sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko'riladi va arizaning mazmuni FPK 189-moddasida nazarda tutilgan talablar bilan birga FPK 299-moddasi talablariga mos kelishi lozim. Chet fuqarolari ishtirokidagi farzandlikka olishda Oila kodeksi 151-167 moddalari talablari tadbiq etiladi. Ushbu masalada fuqarolik sud organlariga ariza bilan murojaat etilib, FPK 283³-moddasida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etiladi. Chet el fuqarolari bo'lgan yoki fuqaroligi bo'lmagan farzandlikka oluvchi shaxslar tomonidan taqdim etiladigan

¹ Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi da xizmat ko'rsatgan vuriist, prof. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. - T.: TDYU nashriyotL 2017. - B.175.

² Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. – B.250.

³ Марышева Н.И. Семейные отношения с участием иностранцев: правовое регулирование в России. – М.: Изд-во ЭКСМО. – 2005. – С. 251.

hujjatlar belgilangan tartibda legalizatsiya qilinishi yoxud ularga belgilangan tartibda apostil qo'yilgan bo'lishi lozim. Bunda taqdim etiladigan hujjatlar O'zbekiston Respublikasining davlat tiliga tarjima qilingan va notarial tasdiqlangan bo'lishi shart⁴.

Farzandlikka olishning sir saqlanishini ta'minlash (Oila kodeksi [153-moddasi](#)) maqsadida mazkur ishlar yopiq sud majlisida ko'rib chiqiladi. Nikoh tuzishda istisno qiluvchi holatlar bo'lgani singari, bolani farzandlikka olishda ham arizachining bolani farzandlikka olishiga to'sqinlik qiladigan holatlarni o'z ichiga olgan maxsus modda - Oila kodeksi 152-moddasi nafaqat milliy, balki chet el elementi ishtirokidagi munosabatlarga nisbatan ham qo'llanadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar, asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar kabilar shular jumlasidandir. Shuningdek, farzandlikka oluvchi (oluvchilar)ning ma'naviy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, uning va u bilan birga yashovchi shaxslarning sog'liqlarini, oilada shakllangan munosabatlar xarakterini va arizani to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar hisobga olinishi kerak.

Yana bir muhim jihat, O'zbekiston Konsullik nizomiga ko'ra, konsul xorijda yashovchi O'zbekiston fuqarolarining boshqa davlat fuqarosi yoki o'sha davlatda doimiy yashash joyiga ega fuqaroligi bo'lmagan bolani farzandlikka olishga ruxsat berish yuzasidan arizalarini Tashqi ishlar vazirligiga yetkazish choralarini ko'radi.

Bola yetim yo farzandlikka oluvchilar (farzandlikka oluvchi)ning yaqin qarindoshi yoki vatanida turli sabablarga ko'ra asrab olinishining imkoni bo'lmaganida farzandlikka olinishiga ruxsat beriladi. Bolani farzandlikka olinishida O'zbekiston mas'ul idorasining uni mamlakatga kirishi va doimiy istiqomat qilishiga ruxsati talab etiladi. Xorijiy davlat mas'ul idorasi tomonidan amalga oshirilgan farzandlikka olish O'zbekistonda farzandlikka oluvchi shaxslarga qo'yiladigan talablarga rioya etilgan, shuningdek, turmush o'rtog'ining bolani asrab olishga roziligi bo'lgan taqdirda haqiqiy deb topiladi.

Agar farzandlikka olish natijasida bolaning O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlari buziladigan bo'lsa, farzandlikka oluvchining fuqarolikka mansubligidan qat'i nazar, farzandlikka olish mumkin emas, amalga oshirilgan farzandlikka olish esa sud tartibida bekor qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashayotgan bolani farzandlikka olish farzandlikka oluvchi qaysi chet davlat fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning vakolatli organi tomonidan amalga oshirilganligi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining farzandlikka olish

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 11.12.2013 yildagi 21-son. <https://lex.uz/docs/-2307248>

to'g'risidagi ruxsati oldindan olingan bo'lsagina, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi. Chet el elementi ishtirokidagi farzandlikka olish O'zbekistonda qat'iy huquqiy tartibga solingan va bu jarayon bolalar manfaatlarini himoya qilishni ko'zlaydi. O'zbekistonning xalqaro shartnomalarga qo'shilishi esa, bu jarayonni yanada oshkora va samarali amalga oshirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, milliy qonunchilik va xalqaro norma va prinsiplarning uyg'unlashuvi farzandlikka olish jarayonida barcha tomonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2000.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 2000.
3. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan vuriist, prof. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. - T.: TDYU nashriyoti // 2017. - B.170.
4. Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. – B.226.
5. Халқаро хусусий ҳуқуқ. Дарслик. –Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2002. –Б. 67.
6. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi da xizmat ko'rsatgan vuriist, prof. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. - T.: TDYU nashriyotL 2017. - B.175.
7. Марышева Н.И. Семейные отношения с участием иностранцев: правовое регулирование в России. – М.: Изд-во Эксмо. – 2005. – С. 251.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 11.12.2013 yildagi 21-son. <https://lex.uz/docs/-2307248>